Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320710

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

3. Mankiw N.G. Principles of macroeconomics. 4th ed. Per. from English. - St. Petersburg: Peter, 2009. - p. 297.

4. Dolan E.J. Money, banking and monetary policy./Trans. from English. V. Lukashevich and Dr. Under total red V. Lukashevich. - L., 1991. - 448 p.

5. F.Mullajonov "O'zbekiston bank tizimi barqaror rivojlanish , xalqaro mezonlarga erishish yo'lida " j. Bozor, pul va kredi. -2013 y. 1-soni .B. 7.

Abdullayevich, Safarov Giyosiddin, and Samandar Raimberdiyev Sherzod Oglu. "The role of capitalization in the expansion of the participation of commercial banks in financing investment projects." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.11 (2021): 108-114. https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-NOVEMBER 2021/11.17,%20Safarov%20Giyosiddin% 20Abdullayevich.pdf

ISHLAB CHIQARISHDA YAROQSIZ MAHSULOTLARNING HISOBI VA SOLIQ OQIBATLARINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Chorshanbayev Umrzoq
Guliston davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrasi o'qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com
G'affarova Sarvinoz Muzaffar qizi
Guliston davlat universiteti magistri
Obloqulova Shaxlo
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovasiyalar"fakulteti talabasi
obloqulovashaxlo1@gmail.com

Annotatsiya: Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlar - bu standartlarga yoki belgilangan talablarga javob bermaydigan, shuning uchun iste'mol qilinmaydigan yoki iste'molga yaroqsiz hisoblangan mahsulotlardir. Ushbu mavzu doirasida, yaroqsiz mahsulotlarni hisobga olish jarayoni, ularning ishlab chiqarishdagi sabablarini aniqlash, shuningdek, bu mahsulotlarning kompaniya uchun soliq oqibatlari tahlil qilinadi. Ishlab chiqaruvchilar uchun yaroqsiz mahsulotlarning hisobi, moliyaviy ko'rsatkichlar va soliq majburiyatlari bilan bog'liq masalalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Yaroqsiz mahsulotlarning chegaralarini aniqlash va ularni samarali yo'lga qo'yish orqali ishlab chiqarish jarayonini va korxona moliyaviy holatini yaxshilash mumkin.

Kalit so'zlar: Yaroqsiz mahsulotlar,hisobga olish,soliq oqibatlari,ishlab chiqarish jarayoni,moliyaviy ko'rsatkichlar, iste'mol talablari ,mahsulot sifatini nazorat qilish.

Kirish(introduction): Har qanday ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlar kelib chiqadi.. Uni qanday to'g'ri rasmiylashtirish va soliq oqibatlari hamda buxgalteriya hisobida aks ettirish mumkin. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar – bu sifati texnik shartlar va standartlarga to'g'ri kelmaydigan buyumlar, detallar, uzellar va yarim fabrikatlar. Ularni maqsadiga binoan qo'llash mumkin emas yoki nuqsonlarini bartaraf etgandan keyin mumkin. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar to'g'risida hujjatlarning tasdiqlangan yagona shakllari mavjud emas, shu bois korxona buxgalteriya Hisob siyosatida yaroqsiz mahsulotlar hisobini yuritish tartibini tasdiqlagan holda mustaqil ravishda hujjatlar shakllari va bayonnomalarni ishlab chiqishga haqli.Mahsulotlardagi nuqsonlarni kuzatib borish, qoidaga ko'ra, texnik nazorat bo'limiga

Published: 23.12.2024
Cite this article: Chorshanbayev Umrzoq, G'affarova Sarvinoz Muzaffar qizi, Obloqulova Shaxlo (2024). Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlarning hisobi va soliq oqibatlarini o'rganishni takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320710
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

(TNB) yuklatiladi. Uning xodimlari ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni aniqlashadi, uning sabablari va daxldor shaxslarni o’rganishadi, buning barchasini bayonnoma yoki boshqa boshlang’ich lokal hujjat bilan qayd qilishadi.

Nuqsonli mahsulotlar to’g’risidagi ma’lumotlarni jadvalda, masalan, Excel formatida keltirishni tavsiya qilamiz. Unda yaroqsiz TMQning nomi, artikuli, o’lchov birligi va sonini ko’rsating. Har bir yaroqsiz mahsulot holati uchun sababini ko’rsating.

Yaroqsiz mahsulot kelib chiqishiga daxldor bo’lgan shaxslarni aniqlashni imkoni bo’lgan bo’lsa, dalolatnomada ular haqida ma’lumotlarni keltiring

Bunday yaroqsiz mahsulot to’g’risidagi dalolatnoma, qoida tariqasida, 3 nusxada rasmiylashtiriladi.

1.Buxgalteriyaga topshiriladi;

2.Nuqson aniqlangan sexga;

3.Yaroqsiz mahsulot to’g’risidagi uchinchi dalolatnoma – moddiy javobgar xodimga.

Aybdor shaxslardan undirish.

Yaroqsiz mahsulot kelib chiqishiga yo’l qo’ygan xodimlar zararni mehnat ko‘deksida belgilangan qoidalarga binoan qoplaydi. Xodimning o’rtacha oylik ish haqidan oshmaydigan zarar ish beruvchining farmoyishiga binoan uning ish haqidan ushlab qolinishi mumkin. Bu holda xodimning roziligi talab etilmaydi. Bunday farmoyish zarar aniqlangan kundan e’tiboran 1 oydan kechiktirmay chiqarilishi mumkin.Yetkazilgan zararning summasi sud qaroriga binoan undiriladi. agar mehnat ko‘deksiga muvofiq;

- u xodimning o’rtacha oylik ish haqidan oshib ketsa;
- zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat o’tgan bo’lsa.

Ish beruvchi zarar yetkazilgan chog’dagi aniq holatlarni hisobga olib, aybdor xodimdan zararni undirishdan qisman yoki to’liq voz kechishga haqli.

Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotning soliq hisobi.

Korxonada yaroqsiz mahsulotlarning normasi tasdiqlangan bo’lishi kerak.Tasdiqlangan normalar doirasida yo’l qo’yilgan yaroqsiz mahsulot, soliq solish maqsadida korxonaning chegiriladigan xarajati hisoblanadi. Odatda ushbu normalar ishlab chiqarishning 1-2%idan oshmaydi. Agar tarmoqqa oid normalar mavjud bo’lsa, ularga yo’nalish oling.Ta’kiblab o’tamizki, Soliq Ko‘deksining 317-moddasida “Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar” ayrim shu kabi holatlar uchun belgilanishicha, xarajatlar foyda solig’i hisob-kitobida chegirilmaydi. Misol uchun – loyihalar va QMIdagi kamchiliklarni, ob’ekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o’tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o’rnini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo’lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlar hisobidan qoplash imkoni bo’lmagan miqdordagi boshqa shunga o’xshash xarajatlar.

Buxgalteriya hisobi.

Yaroqsiz mahsulotlar tufayli kelib chiqadigan yo’qotishlar ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarga kiritiladi. Ishlab chiqarishda brakdan tufayli kelib chiqadigan yo’qotishlar to’g’risidagi axborot 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyoti ma’lum qilinadi .

- 2610 “Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotining debetida aniqlangan yaroqsiz mahsulotlar bo’yicha xarajatlar, shuningdek kafolatli ta’mirlash xarajatlari yig’iladi;
- 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotining kreditida yaroqsiz mahsulotdan ko’rilgan yo’qotishlarning kamayishiga olib boriladigan summalar

(yaroqsiz mahsulotning foydalanish mumkin bo’lgan bahosi bo’yicha qiymati, yaroqsiz mahsulotning aybdorlaridan ushlanadigan summalar, mol yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazib berilgan sifatsiz TMQdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan yaroqsiz mahsulot va boshqalar uchun undiriladigan summalar), shuningdek yaroqsiz mahsulotlardan ko’rilgan yo’qotish sifatida ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilgan summalar aks ettiriladi.

Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2600) bo’yicha analitik hisob korxonaning alohida sexlari, mahsulot turlari, xarajat moddalari va yaroqsiz mahsulotlarning vujudga kelish sabablari bo’yicha yuritiladi.

Xulosa: Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlarning hisobi va soliq oqibatlari korxona faoliyatining muhim jihatini tashkil etadi. Yaroqsiz mahsulotlar, nafaqat ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini kamaytiradi, balki moliyaviy oqibatlar ham keltirib chiqaradi. Bunday mahsulotlarning hisobini to‘g‘ri yuritish, ishlab chiqaruvchilarga ularni o‘z vaqtida aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, yaroqsiz mahsulotlar bilan bog‘liq soliq oqibatlarini tushunish, korxonalarning moliyaviy holatini barqarorlashtirish va ulardan maksimal foyda olish uchun zarur. Shuningdek, yaroqsiz mahsulotlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, resurslarni samarali ishlatish va atrof-muhitni muhofaza qilish mumkin. Kelajakda, tashkilotlar yaroqsiz mahsulotlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun zamonaviy usullar va texnologiyalarni joriy qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 30.12.2019. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi https://lex.uz/docs/-4674902
2. «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999 yil 5fevral.
3. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma: A.Abdullayev, E.Mo‘ydinov, M.Yusupova va B. Soliyev T. , “Fan va texnologiya”, 2005
4. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. E.A.Akramov T: “Moliya” nashriyoti, 2003 yil.
5. To‘laxodjaea M.M. «Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish». T.: 1996.

https://azkurs.org.

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMAT KO‘RSATISHNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Chorshanbayev Umrzoq
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com
Eshmuratova Iroda Shuxrat qizi
Guliston davlat universiteti magistri
Mallaxanov Javohir
Guliston davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti talabasi i
mallaxanovj@gmail.com

Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq